

## BADIIY ASAR TILIDAGI TARIXIY SO‘ZLARNING FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI. "MEHROBDAN CHAYON" TARIXIY ROMANI MISOLIDA

**Oqmirzayeva Umida Normurodovna**

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali talabasi.

E-mail: [oqmirzayevaumida@gmail.com](mailto:oqmirzayevaumida@gmail.com)

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" tarixiy romanida qo‘llanilgan istorizmlar va arxaizmlarning funksional semantik xususiyatlari, ularning uslubiy xususiyatlari, asardagi ahamiyati va qiymati haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** arxaizmlar, istorizmlar, leksik, lug‘atchilik masalalari.*

***Annotation:** This article reflects on the functional semantic features of the istorisms and archaisms used in Abdulla Qadiriyy’s historical novel "Scorpion in the pulpit", their stylistic features, significance and value in the work.*

***Keyword:** Archaisms, istorizlar, lexical vocabulary issues.*

***Аннотация:** В этой статье рассматриваются функциональные семантические особенности историзмов и архаизмов, использованных в историческом романе "Скорпион из алтаря", автором которого является Абдулла Кадыри. А также стилистические особенности и их значение в произведении.*

***Ключевые слова:** архаизмы, историзмы, лексическая словарная лексика.*

**Kirish.** Uzoq o‘tgan tarixga yoki yaqin o‘tmishimizga nazar tashlaydigan bo‘lsak, tilimizda yuz berayotgan leksik o‘zgarishlarni ko‘p marotaba kuzatish mumkin, mana shunday o‘zgarishlar natijasida tilimizda iste‘molda bo‘lgan so‘zlar arxaizm, istorizm kabi qatlamlarga aylanib boradi yoki bu hodisaning aksi o‘laroq, tilimiz imkoniyatlari kengayib, unda yangi leksemalar paydo bo‘la boshlaydi. Jumladan, Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" tarixiy romanida qo‘llangan tarixiy so‘zlarni tahlil qilib, bevosita ularning istorizm yoki arxaizmga aylangani, ularning funksional-semantik xususiyatlari, uslubiy xususiyatlari, asardagi ahamiyati va qiymati haqida fikr-mulohaza yuritimiz.

### Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Tadqiqot ob'ekti sifatida "Mehrobdan chayon" romani olindi. Ushbu roman vositasida prinsipal yangi bilimlarni egallash va oldinda mavjud bilimlar sistemasini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bundan asosiy maqsad yoshlarning "Mehrobdan chayon" romani orqali arxaizm va istorizmlarning badiiy asardagi roli va ularning o'ziga xos gapda tanlanishi, so'z qo'llashi, badiiy tasvir vositalaridan foydalanishi asosida namayon bo'luvchi badiiy til mahoratini ochib berish orqali o'quvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bugungi kunda ta'lim sohadagi ustuvor yo'nalishlardan biridir. Tadqiqot mavzusini yoritishda o'zbek tilining izohli lug'atidagi so'zlarning tasniflash usulidan foydalanilgan.

### Natijalar

Jamiyat va til rivojlanib borar ekan, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy hayotdagi ayrim tushunchalar tamomila eskirib, so'zlashuv jarayonidan ya'ni amaliyotdan chiqib ketadi. Ayniqsa, badiiy asarda muayyan davr voqealari tasvirlanar ekan, ana shu davrga oid bo'lgan eski tushunchalar hozirgi kunga kelib, o'zgargan bo'lishi yoki faol qo'llaniladigan boshqa so'zga aylanganini ko'rish mumkin. Tilshunoslikda ana shunday tushunchalarni ifodalaydigan so'zlar "arxaik so'zlar" va "istorizm-tarixiy so'zlar" degan nomlar ostida umumlashtiriladi.

Tilning aynan hozirgi davri uchun eskilik bo'yog'iga ega bo'lgan til birligi arxaizm deb yuritiladi. "Arxaizm o'zi nomlayotgan voqelikni anglatuvchi leksik birlik bilan yonma-yon yashaydi" [1]. Arxaizmlar badiiy matnda tasvirlanayotgan davr voqeligini real tasvirlash, asarning tarixiylik ruhini ta'minlash maqsadida qo'llaniladi. Ayrim arxaik so'zlar zamonaviy ma'nodoshiga qaraganda ma'noni kuchliroq ifodalash xususiyatiga ega bo'ladi. Hozirgi o'zbek tilshunosligida, o'zbek tilining izohli va ensiklopedik lug'atlarida arxaizmlar, atama va tushunchalar sifatida berilgan leksik birliklarning salmoqli qismi arab tilidan o'zlashgan.

### Muhokama

Arxaizmlar va istorizmlar Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" tarixiy romani matnida ham keng qo'llanilgan bo'lib, ular asarda tasvirlangan voqealarda va personajlar nutqida faol qo'llanilgan, bu esa asarda tasvirlangan davr muhitini yoritishda, asardagi tarixiy muhitni ochib berishda muhim uslubiy vosita bo'lib xizmat qilgan.

Quyidagi "Mehrobdan chayon" tarixiy romanidagi arxaizmlar fikrimizga dalil bo'la oladi:

**Amniyat-tinchlik.** *Shuning bilan birga o'zining mundan so'ng'i harakatida ham amniyat sezmas edi.* (Ma'shuqa mahbasi, 121-bet).

**Amirlik** – viloyat. *U yerda bo'lsa 5-10 "oshiqlar" Abdurahmonchani kelishi on bilittifoq "Buxoro amirligi"ga ko'tarib, amru farmonig'a itoat qilurlar. (Iflos bir moziy, 37-bet).*

**Dallas** - qo'shmachi. *Zeroki, "Gulshan" so'zi bir xotinning ismi bo'lib, bu xong'a chiroylik qizlar topib beruvchi xaram dallasidir. (Quv odam ekansiz, 103-bet).*

**Fatvo** – qaror. *Madalixon bu fatvodan keyin dardini ichiga yutishga majbur bo'lib,... (Amir Umarxonning kanizi, 3-bet).*

**Gavrlik**- yomonlik. *O'rdaliqqa gap uqdirish qiyomatdan keyin, taqdir. Lekin bu yigitga gavrlik siyohi yo'q. (Jilovxonada bir janjal, 34-bet).*

**Jaz** - go'sht, go'sht yog'i. *Jaz o'rnig'a sholg'om chaynaysiz. (O'pka va hazil, 15-bet).*

**Kafshandoz** – oston. *Gulshan kafshandozda oyog'ini yeshib, gilamga chiqdi. (Xaram, 63-bet).*

**Fard** - kimsa. *Shunga o'xshash jamiyat ham bir kasal bilan og'ridimi, uning har bir tabaqa yoki sinfiga, ya'ni to'g'risi, fardiga shu kasal siroyot qilmay qolmaydir. (Iflos bir moziy, 37-bet).*

**Kovfiy** – yetarli. – *Ko'pchilikning duosi qo'l bo'lsa yaxshi, - dedi imom, ammo bu xizmatka uning ilmi kofiymi? (Jilovxonadabir janjal, 35-bet).*

**Majjonan**-tekin. – *Ul majjonan xizmat qiladi, bas, mirzolaringizg'a nima og'irlik? (Yangi "Hunar", 83-bet).*

**Matal qo'yimoq** – kutdirmoq. *Janobni va shu qadar ra'iyatni matal qo'yima. (Xon ko'ngil ochmoqchi. 85-bet).*

**Masnad** - mansab. – *Nodon Anvar O'rdadan qvlanish yerida sarmunshiylik masnadiga minmakchi. (Xushyorliq, 40-bet).*

**Mezona** - masjidida azon aytiladigan joy. *Shukur so'fi mezanaga chiqib azon aytdi. (Jilovxonada bir janjal, 36-bet).*

**Moba'd** – davomi. *Chamasi kunduzgi "suhbat" ning moba'di bo'lsa kerak. (Bisho'y, ey xiradmand... , 93-bet).*

**Moxona** – oylik, maosh. *Uch-to'rt yillardan beri O'rdada mirzolik qilib, necha tillo moxona olar emish. (Xushyorliq, 39-bet).*

**Musohib** – suhbatdosh. *Chunki, kelguvchilarning har ikkisi ham xon yonida mo'tabar va hamisha unga musohib beklardan edilar. ("Fotiha- muhri Xudodir", 108-bet).*

**Muvoso**-murosa qilish. *Chunki bu keyingi tabaqa zamonasoqliq, muvoso va tadbir orqasida yashag'uchidirlar. (Adras to'n va issiq non "fojiasi" 46-bet).*

**Ovoq, zindon** – qamoqxona. *Menim bu jasoratka umidsiz qarashim sababi shuning uchunki, bunday shartlik va nozik xabslar aksar o'rdaning o'zidagi ovoqqa qamalg'uchi edi. ( Xayr endi, Ra'no! 141-bet).*

**Paysa** -150 gramm atrofida og'irlik o'lchov birligi. *Solih mahdumning jo'mardlig'i ko'pincha yigirma paysa yetgan narig'a oshmas, shunda ham bolalardan mo'mayroq "ozodlik" kelib qolsa yoki "panjshanbalik" kutgandan ortig'roq tushsa.* (Ra'noning egasi, 2-bet).

**Qozi** - sud ishlari bilan shug'ullanuvchi shaxs. ... *bobosi Olimxon va Umarxon davrlarida muftilik, qozilik mansablarida xizmat qilgan,...* (Amir Umarxonning kanizi, 3-bet).

**Siforish** - mehribonlik, mehribonlik bilan. *Muftining siforish so'zlashi bilan Kolonshox juda ham o'ziga kelib qoldi va "halli qanday" deb yuvoshqina so'rab ham qo'ydi.* (Chayonning namoyishi, 132bet).

**So'l** - chap. *So'limizdagi birinchi darboza?* (Cho'loq qush, 103bet).

**Uxda qilmoq** - uddalamoq, bajarmoq. *Bu vazifani uxda qilmoq uchun ko'p gap kerak.* (Jilovxonada bir janjal, 33-bet).

**Xamiyat** - ishonch, jasorat. *Siz va o'rtoqlaringizning xamiyatlaringizga rahmat.* (Xayr endi, Ra'no!, 141-bet).

**Xamkuflaringiz** - safdosh, ishonchli inson, sodiq inson. *Sultonali mirzodek xamkuflaringiz ko'paysa hayriyatingiz, degan mulohaza fikrimga keldi.* (Yangi "Hunar", 82-bet).

**Xamnishin** - yuqori mansab egalari. *Xon seskanib ketdi, xamnishinlar ham along-jarang bo'ldilar.* (Qo'rqunch bir jasorat, 145-bet).

**Sanama** - do'ppi. *Dahlizda sanama tikib o'lturgan kanizlardan biri xazinador yugurib kirdi.* (Og'acha oyim, 66-bet).

**Yasavul** - qo'riqchi. *Jallod olding'a tushdi, uning orqasidan Anvar yurdi va orqadan ikki nafar qurolliq yasavul ergashtilar.* (Qo'rqunch bir jasorat, 146-bet).

Istorizmlar ya'ni tarixiy leksema hozirgi o'zbek tilida qo'llanuvchi o'tmishga oid, iste'moldan chiqib ketgan narsa-hodisani bildiruvchi leksimadir va shu bilan birga istorizmlar leksik, semantik, frazeologik xarakterga ega, o'z sinonimiga ega bo'lmagan so'zlar hisoblanadi.

Istorizmlar tarixini o'rganish harakatlari Yevropa tilshunosligida ham, ingliz tilshunosligida ham umumiy lug'atchilik masalalarini o'rganishdan ikki-uch asr keyin boshlangan. O'quv lug'atlarini ilmiy asosda o'rganish o'n yettinchi asrda birinchi ingliz leksikografi S. Jonson, o'n to'qqizinchi asr boshlarida fransuz tilshunoslari J.Dyubua, K.Dyubua, G.Matore, K. Bak, ispan tilshunosligida Y. Malkil ishlaridan boshlanadi. Keyinchalik, o'zbek tilshunosligida leksikografiyaning bu tarmog'ini takomillashtirish davlat ahamiyatidagi yuqori masala sifatida kiritildi va mana shu xatti-harakatlar samarasi o'laroq o'zbek o'quv lug'atchiligi yuqori pog'onaga ko'tariladi va ulkan yutuqlarni qo'lga kiritadi [2]. Bunda P.N.Denisov, L.A. Navikov, S.G.Barxudarov, V.V. Morkovkin, Y.N.Karaulov M.A.Skopina, V.N.Sergeyev,

V.A.Redkin, A.V.Tekuchev, Z.A.Potixa, D.E.Rozental kabilarning xizmatlari katta bo'ladi.

Yevropa o'quv lug'atchiligi o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga to'la erishib, bugungi kunda o'quv lug'atlarni zamonaviy takomillashgan ko'rinishlarini yaratish, ular elektronlashtirish masalalari bilan shug'ullanmoqda. Bu borada K.Petrova, I.V.Azarova, O.A.Mitrofanova, A.A.Sinopalnikova, I.G.Gelfenbeyn, A.V.Goncharuk, V.P.Lexelt, A.A.Lipatov, V.V.Shilo, G.A.Cherkasova va boshqalarning xizmatlarini alohida ta'kidlash lozim [3]. Boshqa tillarda bo'lgani kabi umumiy lug'atchilik masalalari o'zbek tilshunosligida ham Z.M.Ma'rufov, A.P.Hojiyev, S.F.Akobirov, H.Yusufxo'jayeva, N.Alhamova, E.Umarov, A.Madvaliyev, T.Aliqulovlarning ishlarida atroflicha o'rganilgan.

Istorizmning arxaizmdan farqi shundaki, bugungi kunda o'sha tarixiy so'zning o'zi ham uni anglatuvchi boshqa leksik birlik ham bo'lmaydi, demak, istorizm o'zi ifodalayotgan hodisaning yagona nomidir. Masalan, *yuzboshi, podsho, amin, pristav va ellikboshi* kabilar badiiy matnda ishlatilganda kitobxon ijtimoiy boshqaruv tizimi bilan bog'liq tarixiy voqelikni ko'z oldiga keltiradi. "Ular nafaqat, fikr ifodasi, balki tarixiy davrni jonlantirish vositasi, nutq egalarining ruhiyati, dunyoqarashi, salohiyati va madaniyati kabi xususiyatlarini ham namoyon qiluvchi muhim omildir" [4].

Bundan tashqari, badiiy asar tilidagi eskirgan so'zlarni tahlil qilishda asar yozilgan davrni e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Chunki, "so'zlar yozuvchi yashagan, ijod qilgan davridayoq eskirgan bo'lishi mumkin bo'lganidek, asar yozilgan davrda faol iste'molda bo'lib, keyinchalik iste'moldan tushgan" [5] bo'lishi mumkin.

Quyida "Mehrobdan chayon" tarixiy romanida qo'llanilgan istorizmlar:

**Alo-xozalqiyos peshvolari** - din peshvolari. *Bahodirxon qulog'iga bu xabari jonso'z yetib dumog'idan dud chiqadir va darhol Buxoroning zabardast ulamo, a'lam, hokazo va alo-xozalqiyos peshvolarini o'z huzuriga chorlab, ...* (Amir Umarxonning kanizi, 4-bet).

**Amir** - saroy lavozimlaridan biri. *Kimlarning vositasi bilandir mazkura go'zal kanizning ta'rifi Buxoro amiri-amir Bahodir-(Botur) xong'a yetib ul ham ilgaridan haligi kanizga g'oyibona oshiq bo'lgan edi.* (Amir Umarxonning kanizi, 3-bet).

**Beklar** - saroy amaldorlari. *Safar bo'zchining hurmati uchun loaqal qimir etmagan beklar ham mulla Abdurahmonning istiqbolig'a ko'zg'alishdilar.* (Kitob so'zi, 47-bet).

**Buryo puli / supurgi puli** - soliq nomlari. *Bolalar har yili bir marta "buryo puli" va oyig'a bir necha bor "supurgi puli" ham to'lab turar edilar.* ( Oila va kishilar bilan muamala, 7-bet).

**Darvozabon** - O'rta Osiyo xonliklarida darvozaga qaraydigan shaxs. *Darbozaga yaqinlashgan edik, darbozani ochib darvozabon chetlashdilar.* (Nozik, 72-bet).



**Dodras** – xon. *Arzing bo'lsa, dodras huzuridasan, gapur!* (Xon ko'ngil ochmoqchi, 85-bet).

**Daftardorlik / nomanavislik** -saroydagi xatlar va nomalarni yozish san'ati. *Muhammad Rajab munshiy qo'l ostidagi mirzolar yonida daftardorlik, nomanavislik usullarini tajriba qila boshladi.* (15. Maxdumning baxti, 27-bet).

**Dahboshi**-saroy lavozimlaridan biri. *Hozir shaxsufa xon va ayondan holi, ammo shaxsufa qarshisidagi nimsufalar vazirlar, sarkardalar, qozikalon, shayxulislom, qozikuzzot, rais va shaharning zo'r ulamolari-mudarrislar, ahli tariqat eshonlar, O'rda xodimlari va eng pastlarini qo'rboshi va dahboshilar bilan liq to'lgan edi.* (35. Xon ko'ngil ochmoqchi, 83-bet).

**Darxonlik**-ozodlik, ozod qilish. *Kambag'alning kengash so'rab kelishi muhim ishlar ustida, masalan: bir bekning qilg'an zulmi ustidan shikoyat, juda kambag'al bo'lg'ani uchun soliqlardan darxonlik so'rash va hokazo.* (24. Shoirning sirri, 50bet).

**Darvesh udaychi**-saroy lavozimlaridan biri. *Bir necha daqiqa kutgandan so'ng, muhtasham darbozada darvesh udaychi ko'rinib, qarshisidag'i raiyatka o'rnidan turish ishoratini berdi.* (35. Xon ko'ngil ochmoqchi, 83-bet).

**Devon**-davlatning bosh idorasi, tashkilot, muassasa, korxon va boshqa idoralarning buyruq va qarorlar chiqaruvchi joyi.

*Kunduzlari O'rda devonini boshqarish, ertalab va kechqurun o'z uyida xususiy kishilarni qabul qilish, albatta, Anvar uchun og'ir edi.* (24. Shoirning sirri, 49bet).

**Devonxona**-davlat idoralaridagi buyruq, qaror va farmoyishlarni rasmiylashtiruvchi xona. *Anvar devonxona sahniga yetganda ichkaridagi kattadan kichik mirzo, munshiylar yangi boshliqlarini muborakbod qilg'ali o'runlaridan qo'zg'aldilar.* (21. Yorlig' berish marosimi, 43-bet).

**Dovot**-qalam uchun rangdon. *Shahodat mufti savag'ich qalamini dovotga bir ikki tiqib olg'ach, ko'zi qog'ozda ekan, javob berdi.* (21. Yorlig' berish marosimi, 40-bet).

**Jilovxona**-otlar qo'yiladigan joy. *Asr namozi uchun masjid jilovxonasig'a endi 3 kishi yig'ilgan edi.* (18. Jilovxonada bir janjal, 33-bet).

**Fosiqroq** - chiroyliroq, eng ma'quli. *Anvarning tahriri fosiqroq emish, bu, albatta, ta'lim xosiyati.* (Yangi "hunar", 76-bet).

**Kaniz**-cho'ri, xizmatkor ayol. *Amir Umar oxir umrida o'z saroyidagi yosh kanizlardan biriga muhabbat qo'yadir.*(2. Amir Umarxonning kanizi, 3-bet).

**Maktabdor**-xususiy maktabi bor shaxs. *Solih mahdum 1230-1290-hijriy yillarda "xo'qondi firdavsmonand" da yashag'an bir muallim va imom, o'z zamonasining istilosi bilan aytganda "maktabdor domla" dir.*(2. Amir Umarxonning kanizi, 3-bet).

**Meshkob**-xonliklarda suv tashiydigan odam. *Suv hovlisidagi bu hovuz haramning butun ehtiyojini o'tar, uni haftada bir necha martaba maxsus soatlarda meshkoblar tomonidan to'ldirib turilar edi.* (28. Xaram, 63-bet).

**Mingboshi**-mingta qo‘shinga boshchilik qiladigan shaxs. *Mingboshi, qushbegi, domla, shog‘ovul, janob shayxulislom, otaliq va amsoli hazratka ul janob o‘z huzurlaridan joy mehribonchilik qiladirlar!* (35. Xon ko‘ngil ochmoqchi, 84-bet).

**Mirzo**-saroy lavozimlaridan biri. *-Xato qilmasam janoblari mirzo Anvarning ustozlari bo‘lsalar kerak?* (8. Bir o‘rdaliq, 11-bet).

**Muazzin**-din peshvolarining mansablaridan biri. ... *Uchinchisi masjidning muazzini Shukur so‘fi edi.* (18. Jilovxonada bir janjal, 33-bet).

**Muftilik / qozilik**-saroy lavozimlaridan biri. ... *bobosi Olimxon va Umarxon davrlarida muftilik, qozilik mansablarida xizmat qilgan,* ... (2. Amir Umarxonning kanizi, 3-bet).

**Mukarrir**-saroy lavozimlaridan biri. Naima to‘g‘risida tashvish yo‘q, husn, odob, yumish, hammasidan ko‘ngli to‘q, bek bo‘lmasa-bekzoda, mudarris bo‘lmasa mukarrir. (3. Mahdumning uylanishi va maktabdorlig‘i, 5-bet).

**Munofiq**-yomonlar. *Dushmanlar harob, munofiqlar betob o‘lsin.* (35. Xon ko‘ngil ochmoqchi, 84-bet).

**Munshiy**-saroy lavozimlaridan biri. *Albatta, munshiy tariqasida O‘rdaga olinsa ham bo‘ladi-dedi narigi bek.*(23. Kitob so‘zi, 48-bet).

**Musulmon qozixonalari**-sud ishlari bilan shug‘ullanuvchi shaxslar. *O‘rus istibdod idorasi yonidagi musulmon qozixonalari va ulardagi mirzolari har kim xotirlaydir.* (16. Xonning iltifoti, 30-bet).

**Mushkit**-oddiy aholi. *Birorta mushkit ig‘vo qildimi zakotchining tomog‘i taqilladimi, falakat qo‘ltug‘imdag‘i bo‘zni yoppa oldi, qo‘ydi.* (18. Jilovxonada bir janjal, 33-bet).

**Nafsimbir**-tog‘ri, rost, haqiqatdan, haqiqatga mos. *Bo‘lmasa guzarimizning oqsoqoli ham ikki og‘iz gapimizga quloq solsin-chi, nafsimbir gap yaxshi-da taqsir.* (42. Quv odam ekan, 100-bet).

**Navjuvon**-yosh yigit, ospirin. *O‘ninchi qatordan so‘ng yosh sipohlar turkumi uzilib, yaxshi intizomlik qirq nafar navjuvon shaxzoda orqasida xonim ta‘qib etar edilar.* (35. Xon ko‘ngil ochmoqchi, 84-bet).

**Podsholar**-davlat boshqaruvchisi. *Xonlar va podsholar xazinasidagi oltinlar manbai ham fuqaroning bilak kuchidir.* ( 23. Zulm o‘chog‘i, 59-bet).

**Ponsad**- Xudoyorxon davridagi kasblardan biri. *Kechagi Abdushukur ponsadga mazxarni o‘zingiz yozib bermasangiz bo‘lmaydirgan ko‘rinadi.* (Xon ko‘ngil ochmoqchi, 90-bet).

**Qozixona**-qonunni ko‘rib chiqadigan va chiqaradigan saroy organlaridir. *Mulla Abdurahmonni O‘rdadan jo‘natish kerak; tinchkina imom va xatibligini qilsin. Muftilarga ham qozixonadan biror vazifa topilib qolar.* (39. Bisho‘y, ey xirmand, 94-bet).

**Qozixona mirzolari**-Qonun ko'rib chiqaradigan va chiqaruvchi saroy organlarida ishlaydigan shaxslar. *Shu qozixona mirzolari, baayni hikoyamizning mavzui bo'lg'an Xudoyor saroyi munshiylarning kichkina nusxalari edilar.* (16. Xonning iltifoti, 30-bet).

**Rastalar / Qalandarxona**-davlat tashkiloti nomlari. *Shuning uchun, mehnatkash rahmsiz ishlatib madrasalar bino qilmoqda, arig'lar chiqarmoqda, saroy va rastalar, qalandarxona va O'rdalar yopmoqda edi.* (27. Zulm o'chog'i, 60-bet).

**Raisulmakotiblik**-maktablar raisi. *Xonning hadyasi uch yuz tillo pul, shu qadar qiymatka arziydirgan shohona sarpolar, mahdumga alohida iltifot qiling'an "raisulmakotiblik" unvonlaridan iborat edi.* (48. To'y arafasida, 116-bet).

**Sarkardalar**-kichik jangchilar guruhini boshqaradi. *Sarkardalardan ba'zisi darboza tashqarisida xizmatchi tarafidan qantarilib turg'an otining yonig'a kelib, ...* (28. Xaram, 62-bet).

**Sarkardanomo**-jiddiy, ortiqcha so'zlamalik. *Anvar mehmonxonada Shahidbek va yana bir sarkardanamo bila so'zlashib o'turur edi.* (23. Kitob so'zi, 47-bet).

**Sarkar**-harbiy qism qo'mondoni. *Qalamravidagi barcha shahar va qishloqlarg'a sarkorlar, cho'g'ollar tarqatdi.* (27. Zulm o'chog'i, 60bet).

**Saroy**-xon, amir, podsholarning doimiy istiqomat qiladigan, dushmandan himoyalangan qo'rg'oni. *Amir Umarxon oxir umrida o'z saroyidagi yosh kanizlardan biriga muhabbat qo'yadir.* (2. Amir Umarxonning kanizi, 3-bet).

**Sipoh**-shoh, amir saroyida xizmat qiladigan jangchi. *Mahdum mashqxonadan chiqib ichkari kirishga odim uzg'an holatda darbozadan sipohi kiyimda bir kishi kirdi.* (8. Bir o'rdaliq, 11-bet).

**Ulamo**-shariat qonunlarini, diniy bilimlarni mukammal biladigan mulla. *Solih mahdum sinfi jihatdan ulamo oilasiga mansub...* (2. Amir Umarxonning kanizi, 3-bet).

**Valine'mat**-oliyhimmat, saxovatpesha. *Qullaridan biri valene'matga ikki kalima arzim bor, deydir!* (35. Xon ko'ngil ochmoqchi, 84-bet).

**Xon**-sharq mamlakatlarida hokimiyat boshlig'i, hokimi. *Qisqasi mahdumning ota-bobolari xonlar qoshida mumtoz va xalq nazarida "sharoflik va muhtaram" mavqeni ushlab kelganlar.* (Amir Umarxonning kanizi, 3-bet).

**Xudaychi**-xonning oldiga hujjatlarni olib borib ko'rsatadigan shaxs. *....xudaychiga topshirish uchun tayyorlar, ba'zilarini birinchi xonada oldig'a dovot-qalam qo'yib daftar ustida o'turgan mirzo, muftilarga havola qilar edi.* (21. Yorlig' berish marosimi, 40-bet).

**O'rdaning devonxona xizmatchilari**-devonxonada ishlaydigan odamlar guruhi. *O'rdaning devonxona xizmatchilari kiyimida bo'lg'an bu kishini mahdum o'z umrida birinchi martaba ko'rar edi.* (8. Bir o'rdaliq, 11-bet).



**G'ayri saroy xodimlari**-saroyda xonga xizmat qiluvchi barcha shaxslar.. *Devonda eski odaticha o'z ishini qilib o'rturg'uchi Anvarning yonig'a dam-badam mirzo va g'ayri saroy xodimlari kelib, ohistag'ina uni tabrik etib ketar edilar.* (21. Yorlig' berish marosimi, 40-bet).

**Shaharning qo'rboshi**-xonlik yoki amirlikka qarashli qurol-aslaha ombori boshlig'i, amaldor. *-Siz o'zingizni past urib Olim qovoq emasmani, otimni aytkan ot bilan tanisang deysiz, xolbuki, sizni O'rdaning mirzoboshisi, shaharning qo'rboshi, dahboshisi ham taniydir.* (42. Quv odam ekan, 101bet).

**Shog'ovulboshi**-saroy lavozimlaridan biri. *Bu to'g'rida domla Niyoz Muhammad shog'ovulboshining qulog'iga andakkina ting'illatib qo'yishni so'rardi.* (24. Shoirning sirri, 50-bet).

**Shustagar**-mato oxorlovchi. *Past odamlarsan-da: biring temirchining o'g'li, ikkinching shustagarning bolasi.* (55. Barimta, 137bet).

**Chilchirog'**-xonani yoritishga mo'ljallangan qurilma. *Katta qandildagi chilchirog' muri ostida haram qizlarning husni yal-yonar...* (31. Qirq qizlar, 71-bet).

**Cho'g'ollar**-xon askarlarining bir turi. *Xudoyor cho'g'ollari qishloqqa chiqib, Nazmining otasini siqqanlar, urg'anlar...* (31. Qirq qizlar, 72-bet).

### Xulosa

Xulosa qilib aytganda, keltirilgan misollardagi arxaizmlar va istorizmlar asar matniga tarixiy bo'yoqlarni bera olganligi bilan ahamiyatlidir. Yuqorida keltirilgan arxaizmlar va istorizmlar "Mehrobdan chayon" tarixiy romanida faol qo'llanilgan bo'lib, asar voqealari tasvirlangan davr ijtimoiy hayotining haqqoniy ifodasini ko'rsatishga xizmat qilgan. Yozuvchi o'sha davrga xos so'zlar, ya'ni istorizmlardan o'z o'rnida foydalanib, tarixiy davr hayot haqiqatini yorqin aks ettirishga erishgan.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Rahmatullayev.Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili.-T:"Universitet".2006. 98-bet.
2. Saidovna A.C. язык является главным приоритетом в обучении. Е вропейский журнал инноваций в неформальном образовании.2022.с-108-110.
3. Rakhimov.B.S, Yormatov F.J. Toponomical analysis of Khatak and Dahparakent villages. O'tmishga nazar jurnali. 2019. 19-bet.
4. Xudoyberdiyeva. N.A."Navoiy" romanida dialogning ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Toshkent-2014. 59-bet.
5. Boymirzayeva.S. Oybek prozasining lingvostilistik tadqiqi. Samarqand. 2004.
6. Abdulla Qodiriy.Mehrobdan chayon.-T:"G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at".1994.